



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

DIALOGLARDA MUROJAAT SHAKLLARINING PRAGMATIK TASNIFI

Aziza ESHQURBONOVA*

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matnlardagi dialoglarda qoʻllaniluvchi murojaat shakllarining pragmatik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Murojaat kundalik faoliyatimizda keng qoʻllanuvchi til birligi sifatida adresant bilan adresatning kontakt oʻrnatish vositasi boʻlib, u diqqatni jalb qilish, muloqot vaziyatini saqlab turish, suhbatdoshga taʼsir qilish, uni chalgʻitish, ishontirish kabi vazifalarni bajarishi mumkin. Shuningdek badiiy dialoglardagi ekspressiv murojaat shakllari ikki turga ajratilib oʻrganilgan. Baholovchi harakterdagi ekspressiv murojaat shakllari toʻqqiz turga boʻlinib tasnif qilingan va har bir tasnifni badiiy matnlardan keltirilgan misollar orqali asoslashga harakat qilingan. Pragmatik nuqtayi nazaridan ekspressiv murojaat shakllarini yuzaga keltirish jarayonida muloqot ishtirokchilari bir-birlarining xarakter-xususiyatlarini bilishi, bu jihatlarni oʻzlari uchun belgilashi va unga munosabat bildirishi kabi bosqichlarda ifodalanishi masalalari haqida toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: dialog, badiiy dialog, ekspressiv murojaat, antonomaziya, pragmatika, muloqot, adresant, adresat, intonatsiya, taxallus.

Pragmatic Classification of Address Forms in Dialogues

Abstract

This article analyzes the pragmatic features of the forms of address used in dialogues in literary texts. The address, as a widely used language unit in our daily activities, is a means of establishing contact between the addressee and the addressee, and it can perform tasks such as attracting attention, maintaining a dialogue situation, influencing the interlocutor, distracting him, and persuading him. Also, expressive forms of address in literary dialogues are studied, divided into two types. Expressive forms of address of an evaluative nature are classified into nine types, and each classification is tried to be justified by examples from literary texts. From a pragmatic point of view, the issues of expression in the process of creating expressive forms of address are discussed, such as the knowledge of the characteristics of each other, the determination of these aspects for themselves, and the reaction to them.

Keywords: dialogue, artistic dialogue, expressive appeal, antonomasia, pragmatics, communication, addressee, addressee, intonation, pseudonym.

Dialoglarda ekspressiv murojaat shakllari juda xilma-xil va koʻp qirrali. Soʻzlovchi ekspressiv murojaat shakllarini qoʻllash orqali suhbatdoshga taʼsir qilishi,

* Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD). Termiz davlat pedagogika instituti. eshqurbonovaaziza@gmail.com

o‘z ichki kechinmalarini unga yetkazishi yoki umumiy dialog fonini yaratishi mumkin. Murojaat adresant bilan adresatning kontakt o‘rnatish vositasi hisoblanib, diqqatni jalb qilish, muloqot vaziyatini saqlab turish, suhbatdoshga ta’sir qilish, uni chalg‘itish, ishontirish kabi vazifalarni bajarishi mumkin. Murojaat kundalik faoliyatimizda keng qo‘llanuvchi til birligidir.

Murojaat suhbatdoshlarni yaqinlashtirish vositasi hamdir. Mavzuga oid manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu murojaat shakllarining yuzaga kelishida so‘zlovchining umumiy-psixologik xususiyatlari asos vazifasini o‘taydi. Adresatga murojaat qilish o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik aspektga ega. Murojaatlar so‘zlovchi maqsadini namoyish qiluvchi illokutiv kuchga ega. (Qodirova, 2021, 34-b.) Ekspressiv murojaat shakllari bu jarayonda katta ahamiyatga ega. Ushbu murojaat shakllarining hosil bo‘lishida xarakter, emotsional kayfiyat, iroda kabi psixologik omillar ishtirok etadi. Pragmatik nuqtayi nazaridan esa ekspressiv murojaat shakllarini yuzaga keltirish jarayoni – muloqot ishtirokchilari bir-birlarining xarakter-xususiyatlarini bilishi, bu jihatlarni o‘zlari uchun belgilashi va unga munosabat bildirishi kabi bosqichlarda amalga oshiriladi. Agar ekspressiv murojaat shakllari shu bosqichlarda amalga oshirilsa, suhbatdoshlar ushbu muloqot orqali o‘zi ko‘zlagan niyatiga yetishda birinchi qadamni tashlagan bo‘ladi.

Ekspressiv murojaat shakllarini tanlashda so‘zlovchilarning vaziyat, joy hamda muloqotning rasmiy yoki norasmiylik darajasi, milliy qarashlar salmog‘i kabi omillarga ham e’tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bu shakllar semantik tasnifi predmet yoki obyekt nominatsiyasida baholash va emotivlik darajasi tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyillar ham ichki turlarga bo‘linadi. Keltirilgan turlardan baholovchi xarakterdagi ekspressev murojaatni bir necha turlarga bo‘lib tasniflashga harakat qilamiz.

1. Fe‘l-atvori va intellektual fazilatlari yoki xususiyatlariga ko‘ra. Bunda kishilarning xulqi, tabiati, intellektual salohiyati kabi belgilari asos qilib olinadi va shu xususiyatlari bo‘yicha qayta nomlanadi:

– *Zo‘r-ku, vey, qayoqdan topding?*

– *Tanishtirib qo‘yay desam o‘zing qochib ketding-ku , darvish? — Sherzod kuldi.* (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”.)

Ushbu dialogik matnda keltirilgan “darvish” murojaat shakli sodda va sipo, ko‘p narsa bilan ishi yo‘q kishiga nisbatan ishlatilgan.

2. Jismoniy xususiyatlariga ko‘ra. Bunda kishilarga tashqi qiyofasi, jismoniy belgilari, xatti-harakatlari jihatidan baho beriladi va qayta nomlanadi.

– *Polvon tog‘a, siz otamni bilarmidingiz?*

– *Yo‘q, men bu qishloqqa keyinroq kelganman. Lekin otangning yo‘qolganini eshitganman. Har xil mish-mishlar yurardi.* (T.Malik. “Shaytanat”, 2-kitob.)

3. Kasbiy mansubligiga ko'ra. Turli kasb doirasidagi shaxslar bilan bo'lgan o'zaro muloqotda bevosita uning kasb-kori bilan ham atab murojaat qilinadi. Bunda murojaatning qanday mazmunni ifodalashi intonatsiya orqali, badiiy asarlarda esa yozuvchining qo'shimcha izohi yordamida anglashiladi. Masalan, bir kasb egasiga bo'lgan murojaatda ta'na-dashnom, yolvorish, samimiy maslahat yoki minnatdorlik ifodalanishi mumkin. (Akbarova, 2015, 80-b.)

– Ha, hofiz, eson-omon chiqib keldingizmi?

Asadbekning ovozida piching yoki tahdid yo'q edi. Elchin bundan yengil tortdi. Xavotiri bekor ekanini anglab, ovoz kelgan tomonga qarab salom berdi.

– “Keldim” deb qo'ymaysiz-a, hofiz, – dedi Asadbek salomga alik olib. – Har holda men sizga begona emas edim. Aka-ukaligimiz bor edi,a?

Asadbekning “sizni otuvdan olib qolgan men bo'laman” demoqchi ekanini Elchin fahmladi. Ko'zi qorong'ilikka o'rganib, uyning chap tomonida do'ppayib turgan tanchani, devorga suyanib turgan odam qorasini ilg'adi. Uchrashuv nima uchun qorong'ida bo'layotganiga tushunmadi.

– Qamoqdan qaytgan ukadan xabar olish akadan lozim, deb o'ylabman, – dedi Elchin gina ohangida. (T.Malik. “Shaytanat”, 1-kitob.)

4. Ijtimoiy mansublik asosida. Kishilarning jamiyatda ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini bildiruvchi so'zlar bilan ham murojaat qilinadi. Lekin bunday nomlanishdan so'zlashuv uslubida ko'proq, badiiy asarlarda kamroq qo'llanishi guvohi bo'ldik.

– Uxlab qoldingmi, hoy lo'li? (O'.Hoshimov. “Muhabbat”.)

5. Bir guruhga mansubligi asosida. Bunda kasb, diniy, etnik va turli demografik guruhlariga mansub suhbatdoshlar bir-biriga bog'liq guruh nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda murojaat qilishadi. Masalan, bir xil kasbdagi ikki suhbatdosh bir-biriga kasbdosh yoki hamkasb, bir sinfda o'qiydigan suhbatdoshlar esa bir-birlariga sinfdosh deb murojaat qilishlari mumkin.

– Nima gunoh qildik, hamkasaba! – dedi u ichkari kirishi bilan yarim hazil-yarim piching qilib.

– Bir abituriyentdan qaytadan imtihon olishga to'g'ri keladi. (O'.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”.)

6. Hududiy-etnik kelib chiqishiga ko'ra: bu turdagi murojaatlar kam qo'llaniladi. Asosan tarixiy asarlarda bu xildagi murojaatlar qo'llanilgani kuzatiladi.

– Xo'sh, qozoq do'stim, gapir endi! – dedi Namoz qamish ustiga cho'kib.

– O'si o'zing aytqankimi qildiq, – so'z boshladi Esergep mamnun bir qiyofada.

– Kimda uchqur at barlig'ini eshitsak, axtarib tabib savdasini qildik. Paygalarda chapdiq, birinchliqti alg'an atlarg'a talashib-tartishib o'tirmay iyesi so'rag'an puldi beraberdiq, shuytib tulparlarda qo'lg'a kiritaverdiq.

– Jami qancha ot keltirdingizlar?– qiziqsinib so'radi Namoz.

– *Jiyirma chaqti.* (X.To‘xtaboyev. “Qasoskorning oltin boshi”).

7. Taxalluslar. Bunda kishilarni o‘zlari tan oladigan “ikkinchi nomi” – taxalluslari bilan nomlash ko‘zda tutiladi:

– *Ismingiz nima, otaxon?*

– *Ismim – Darbadar.*

– *Iye, shunaqa ism ham bo‘ladimi?*

– *To‘g‘ri, bunaqa ism yo‘q. Lekin shunaqa odamlar bor. Mingtepa degan joyni bilasanmi? Jannatmakon otamning kindik qonlari o‘sha qishloqqa tomgan. Otam bir yoshga to‘lmay turib bobomning yurak qoni shu qishloqda oqqan. O‘ruslar Mingtepa ariqlarida inson qonlarini oqizib, so‘ng atrof qishloqdagilarni adirga haydaganlarini nahot eshitmagan bo‘lsang? O‘zbeklarni darbadar qilib, ularning o‘rniga o‘ruslarni ko‘chirib olib kelib, “Marhamat, yashanglar!” – deganlarini ham eshitmaganmisan? Axir, o‘sha fojidan “Marhamat” degan nom xotira bo‘lib qolgan-ku? Yorab, bu ne ko‘rgilik? Dukchi eshonni bilarsan, balki.* (T. Malik. “Murdalar gapirmaydilar”).

8. Antonomaziyalar (noma‘lum nomlar). Antonomaziyalar yordamida ta‘riflanayotgan va tavsiflanayotgan shaxs yoki badiiy asar qahramoni xususiyatlari aniq va ta‘sirli ifodalanadi. U nafaqat emotsionallikni yuzaga keltiradi, balki shu bilan birga antonomaziyalashgan inson yoki obrazga to‘g‘ri va aniq bahoni ham beradi

– *Xo‘sh, Pugachev, ishlar qalay? – deb so‘radi.*

– *Men Pugachev emasman, – dedi Namoz allanechuk o‘ng‘aysizlanib.*

– *Lekin Pugachev bo‘lmaganing ham yaxshi, – dona-dona qilib dedi Bondarenko.– Pugachev tuppa-tuzuk boshlagan ishini oxirida poshsho bo‘laman, deb o‘zi rasvo qilib qo‘ygan... xalq poshshoni yomon ko‘radi... Xo‘sh, ishlar qalay?*

– *Umuman yomon emas.* (X.To‘xtaboyev. “Qasoskorning oltin boshi”).

9. Laqablar. Kishilar ba‘zan nutq obyektini o‘z o‘lchovi asosida baholashga harakat qilishadi. Laqablar vositasida murojaat etishda salbiy yoki ijobiy baho munosabatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Asadbek xonani ko‘zdan kechirgach:

– *Bo‘tqa! – deb baqirdi.*

Bo‘tqa – videobar egasi Kenjaning laqabi. U Asadbek kirib ketgach, joyiga borib o‘tirmay, eshik og‘zida turgan edi. Xo‘jayinning qahrli ovozini eshitgach, shoshilib kirdi.

– *Labbay, okaxon, – dedi qo‘l qovushtirib.* (T.Malik. “Shaytanat”, 1-kitob.)

Ko‘pgina tilshunoslarning fikricha, murojaatlar faqatgina suhbatdoshlar o‘rtasidagi aloqa kanalini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan, deb hisoblashadi. Lekin murojaatning vazifalari xilma-xil bo‘lib, ularning bu xususiyatlari nutqning kommunikativ-pragmatik yo‘nalishlari bilan tartibga solinadi hamda muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni baholash xususiyatlarini ifodalovchi

pragmatik ma'noga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Қодирова М. (2021). *Турли тизимли тилларда мурोजаатнинг коммуникатив – прагматик аспекти*. Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. Термиз.

Акбарова З. (2015). *Ўзбек тилида мурोजаат шакллари*. Академнашр.

Ҳошимов Ў. (1977). *Нур борки, соя бор*. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Малик Т. (1998). *Шайтанат*. 1-2-китоб. Шарқ.

Ҳошимов Ў. *Муҳаббат*. www.ziyouz.com кутубхонаси

То'хтабойев Х. (2016). *Qasoskorning oltin boshi*. Yangi asr avlodi.

Т. Malik. *"Murdalar gapirmaydilar"*. www.ziyouz.com кутубхонаси.